

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

<b>X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айrim fikr-mulohazalar .....	113
ADABIYOTSHUNOSLIK	
<b>X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova</b>	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari .....	118
<b>A.Abduraxmonov</b>	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati .....	122
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	127
<b>N.Karimova</b>	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi .....	134
<b>P.Ro'ziboyeva, B.Karimov</b>	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi .....	138
<b>N.Avazov</b>	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
<b>Sh.Axmedova</b>	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
<b>N.Soatova</b>	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati .....	155
<b>Sh.Turg'unov</b>	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida .....	162
TILSHUNOSLIK	
<b>Sh.Iskandarova, F.Musayeva</b>	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
<b>D.Ganiyeva</b>	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
<b>Sh.Amonturdiyeva</b>	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
<b>N.Xoshimova</b>	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi .....	184
<b>M.Hojiyeva</b>	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida .....	187
<b>V.Giyosova</b>	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar .....	190
<b>S.Ahmadaliyeva</b>	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
<b>H.Saipova</b>	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari .....	197
MATEMATIKA	
<b>T.Ergashev, D.Urinboyeva</b>	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
<b>B.Kadirkulov, M.Jalilov</b>	
Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qo'yilgan teskari masala .....	209
<b>N.Murolimova</b>	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala .....	214
<u>FIZIKA - TEXNIKA</u>	
<b>X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov</b>	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish .....	223
<b>M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov</b>	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

**NUTQNING SINTAKTIK-KOMPOZITSION TAHLILUY USULLARI****ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ СИНТАКТИКО – КОМПОЗИЦИОННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ РЕЧИ****DESCRIPTION OF SYNTACTIC-COMPOSITIONAL PARTS OF SPEECH****Saipova Hilola Abdulxamidovna<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Saipova Hilola Abdulxamidovna** – FarDU tadqiqotchisi.**Annotatsiya**

Maqolada nutqning shakllanishida muhim vazifa bajaruvchi birliklar, kompozitsion-sintaktik tuzilishini o'rganish, uni semantik-struktur va funktional jihatdan baholash, ma'lum bir makon va zamon birligida uni tashkil etgan komponent-qismlar, sintaktik-stilistik figuralar, gaplar va boshqa obraz yaratuvchi vositalarning tartibli joylashishi, mantiqiy va lingvistik kategoriya sifatida talqin etiluvchi sintaktik-kompozitsion qismlar, murojaat, mavzuning belgilanishi, eslatish, tasvirlash, dalillash, rad, iddao qilish, xulosa, so'z, birikma, gap, frazalar, uslubiy vositalar, lingvistik kategoriylar, nutqning mavzusi, sarlavhasi, nomlanishi, epigrafi, yozma nutq, matn, poetik nutq, she'riy band bitta supersintaktik, lyroepik asarlarda xotima va uni ifoda etuvchi lisoniy va nutqiy vositalar tizimi va ularning asosiy belgi-xususiyatlari, kompozitsion qismlari sifatida boshlanma, tartibli joylashuv, "sochilib yotgan", izchil rivojanlib borish, fikr rivoji va tugallanmalar haqida ma'lumot beriladi.

**Аннотация**

В статье речь идет о единицах, играющих важную роль в формировании речи, изучении композиционно-синтаксической структуры, ее семантико-структурной и функциональной оценки, компонентов, составляющих ее в конкретном пространстве и времени, синтаксико-стилистические фигуры, предложения и др. упорядоченное расположение образообразующих средств, синтаксико-композиционные части, интерпретируемые как логические и языковые категории, ссылка, предметное определение, напоминание, описание, доказательство, опровержение, утверждение, вывод, слово, соединение, предложение, словосочетание, методические средства, языковые категории, предмет, заглавие, заглавие, эпиграфика, письменная речь, текст, поэтическая речь, введение в единое надсинтаксическое, лироэпическое произведение, система языковых и словесных средств выражения и их основные признаки, начало как композиционные части упорядоченное позиционирование, «рассейянность», последовательное развитие, поток мыслей и завершение.

**Abstract**

The article deals with the units that play an important role in the formation of speech, the study of compositional-syntactic structure, its semantic-structural and functional evaluation, the components that make it up in a particular space and time, syntactic-stylistic figures, sentences and more. orderly arrangement of image-forming means, syntactic-compositional parts interpreted as logical and linguistic categories, reference, subject definition, reminder, description, proof, rejection, claim, conclusion, word, compound, sentence, phrase, methodological means, linguistic categories, subject, title, title, epigraphy, written speech, text, poetic speech, introduction to a single supersyntactic, lyroepic works, the system of linguistic and verbal means of expression and their main features, beginning as compositional parts orderly positioning, "scattered", consistent development, flow of thought, and completion.

**Kalit so'zlar:** kommunikatsiya, kommunikativ birlik, lisoniy faktor, semantika, struktur tahlil, kompozitsiya, sintaktik butunlik, supersintaktik butunlik, abzas.

**Ключевые слова:** сообщение, коммуникативная единица, языковой фактор, семантика, структурный анализ, композиция, синтаксическая целостность, надсинтаксическая целостность, абзац.

**Key words:** communication, communicative unit, linguistic factor, semantics, structural analysis, composition, syntactic integrity, supersyntactic integrity, paragraph.

**KIRISH**

To'liq tugallangan nutq ko'rinishlarining boshqa kommunikativ birliklardan farqi, eng avvalo, fikrning to'liq-tugal ifoda etilishida ko'rindi. Ular orqali ifoda etilgan fikr ma'lum bir obyekt tasvirida yoki ma'lum bir informatsiyani ifoda etishda kengligi va barcha tafsilotlarning to'liq uzatilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonda mavzuga oid ma'lumotlarning ketma-ket uzatilishi, tartiblanishi, izchilligi, mualif tomonidan ma'lum bir uziyi aloqadorlikning ta'minlanishi kabi mantiqiy va lisoniy faktorlar nutqning yaxlitligini, tushunarli bo'lishini va ifodaning badiiy-estetik qimmatini belgilaydi. Ana shu uziyilik va mantiqiy ketma-ketlik nutqning sintaktik kompozitsiyasini belgilaydi.

Sintaktik kompozitsiya masalasi qadimdan falsafa, mantiq, notiqlik san'ati, filologiya sohalari bilan shug'ullanib kelgan olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Rus tilshunos olimasi M.N.Nikonovaning ta'kidlashicha, nutqning sintaktik kompozitsiyasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar antik davr faylasufi Sitseron asarlarida uchraydi. Sitseron fikrni ma'lum bir tartibda va mantiqiy izchillikda ifoda etishda uning sintaktik kompozitsiyasini to'g'ri yarata olish va bunda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqidagi ko'rsatmalarida bir qator mulohazalarini keltirib o'tgan[1,240]. Hozirgi zamonaviy tilshunosligimizda ham nutqning mazmun-mundarijasi va nutq kompozitsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon davom etmoqda. "Nutq mazmuni va va uning strukturasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sintaktik kompozitsiyani shakllantiradi"[2,27]. Jahon tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida poetik nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishi bo'yicha diqqatga sazovor ishlar qilingan[3]. O'zbek tilshunosligida prozaik nutq (matn)ning eng yirik birligi hisoblangan supersintaktik butunliklar tadqiqida matn kompozitsiyasi o'rganilgan[4,23].

Nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishini o'rganish uni semantik-struktur va funksional jihatdan baholash demakdir. "Nutqning sintaktik kompozitsiyasi deyilganda, nutq tarkibiga kiruvchi qismlarining tartibli joylashuvi, fikrning izchil rivojlanib borishi, mana shu izchillikni ifoda etuvchi til va nutq birliklarining muayyan mantiqiy ketma-ketlikda joylashuvi va badiiy jihatdan ifodali etish uchun qo'llanishi tushuniladi"[5,174-179]. Kompozitsion-sintaktik tarkib lisoniy birliklarning bir necha usulda qo'llanishi natijasida hosil qilinadi. Tilshunoslar tomonidan badiiy asarning kompozitsion-sintaktik tarkibini yaratish uchun muallif tomonidan takrorlash, kuchaytirish, qayta ishslash (bu o'rinda oldingi fikrga qaytgan holda, fikrni rivojlantirish nazarda tutiladi) usullari qo'llanadi.

Kompozitsion-sintaktik tarkib asarning poetik shakl-shamoyilini gavdalantiradi. Lingvistikada nutqning kompozitsiyasi, ya'ni asar matnni tashkil etgan so'z, birikma, gap, frazalar, uslubiy vositalarning tartibli joylashishi asosida shakllanadi. Sintaktik kompozitsiya muallif ongida "sochilib yotgan" fikr-g'oyalarni tartibga soladi[6,24] va til vositalari yordamida ifodalanishi bilan murakkab sintaktik qurilma – nutq yaratiladi. Kompozitsiya alohida qismlardan butunlik hosil qiladi. Bunda nutqning mavzusi, sarlavhasi, nomlanishi, epigrafi, birinchi va oxirgi gapi muhim vazifa bajaradi.

### ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODLAR

Nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishi ma'lum bir makon va zamon birligida uni tashkil etgan komponent-qismlar, sintaktik-stilistik figuralar, gaplar va boshqa obraz yaratuvchi vositalarning tartibli joylashishi asosida shakllanadi. Sintaktik kompozitsiya muallif ongida "sochilib yotgan" fikr-g'oyalarni tartibga soladi[6,24] va til vositalari yordamida ifodalanishi bilan murakkab sintaktik qurilma – nutq yaratiladi. Kompozitsiya alohida qismlardan butunlik hosil qiladi. Bunda nutqning mavzusi, sarlavhasi, nomlanishi, epigrafi, birinchi va oxirgi gapi muhim vazifa bajaradi.

Nutqning semantik-struktur bo'laklanishi doimo boshqa bir kategoriyaladagi hajmiy-pragmatik va kompozitsion sintaktik bo'laklanishi usuli bilan uzviy bog'liqidir. Mazkur yondashuvlarning barchasida bir qonuniyat – fikrning izchil rivojlanishi, fakt va ma'lumotlarning ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikda berilish usuliga amal qilinadi. Nutqning kompozitsion-sintaktik tahlilida eng asosiy tamoyil sistemalilik tamoyilidir. Bu tamoyil nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishida turli sath birliklarning ierarxik munosabatiga asoslanadi. Mazkur sistemalilik fikriy izchillik va kompozitsion-sintaktik struktura tarkibini ma'lum bir qism-elementlarga ajratib tahlil qilish usuli orqali amalga oshiriladi.

Kompozitsion-sintaktik struktura tarkibini qismlarga (bo'laklarga) ajratishda turli qarashlarga duch kelamiz. Antik davr notiqlik san'ati asoschilaridan biri Marku Fabiyu Kvintilian birinchi marta nutqning sintaktik kompozitsiyasi nazariyasini ishlab chiqadi va nutq sintaktik kompozitsiyasi sakkiz qismdan iborat ekanligini bayon qiladi va mana shu sakkiz qismning ma'lum bir izchillikda tartiblanishi natijasida obrazli va ta'sirli nutq shakllanishini alohida takidlaydi[7,52]. U tomonidan ko'rsatib o'tilgan sintaktik kompozitsiya qismlari keyinchalik ritorika amaliyotida qo'llanilgan. Quyida sintaktik kompozitsiyaning olim tomonidan taklif etilgan qismlarini ko'rib chiqamiz:

1.Murojaat – tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish maqsadida qo'llanilgan daromad qismi. Bizningcha, o'zbek xalq poetik ijodidagi ertaklarda *bir bor ekan*, *bir yo'q ekan* tarzida boshlanuvchi qismga teng keladi.

2.Mavzuning belgilanishi – Nutqning nimaga (qaysi mavzuga) bag'ishlanishini ma'lum qiluvchi qism. Tinglovchilarga ma'lum bo'lgan narsa-hodisalarni eslatish va shu yo'l bilan mavzu yo'nalishini tanlash imkoniyatini beruvchi qism.

## TILSHUNOSLIK

3. Eslatish (ma'lum qilish) – nutq obyekti yoki predmeti haqidagi boshlang'ich ma'lumotlarni eslatish yoki ma'lum qiluvchi qism.

4. Tasvirlash – ma'lum bir narsa hodisaning yoki nutq predmetining hozirgi holati haqida ma'lumotlar berish. Bu qismda muammo ham e'lon qilinadi.

5. Dalillash – muammoning hal qilinishi bo'yicha dalil, fakt va argumentlarni bayon qiluvchi, mantiqiy asoslarni o'rtaqa tashlovchi qism.

6. Rad – nutq muallifining qarashlariga mos kelmaydigan ma'lumotlarni rad etish. Bunda nutq muallifi mavjud qarashlarga zid bo'lgan nuqtai nazarini mantiqan bayon etadi va o'z qarashlarini dalillaydi.

7. Iddao qilish (shikoyat) – mazkur qismda nutq muallifi "*shunday ham bo'ladimi?*" tarzida murojaat qiladi va shu yo'l bilan tinglovchilar his-tuyg'ularini, munosabatlarini tekshiradi. Bunda muallif (notiq) tinglovchilarning emotsiyal holatlari bilan hisoblashgan holda, hissiyotga beriladi va tinglovchini xulosaga tayyorlaydi. Bunda axborot ikkinchi, hissiyot esa birinchi darajali qiymatga ega bo'ladi.

8. Xulosa – yuqorida bayon qilingan barcha fikrlar umumlashtiriladi va mavzu qisqacha xulosalanadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA USULLARI

Ko'rinadiki, Kvintilian nutqning kompozitsion-sintaktik qismlarini belgilashda notiqlik san'ati, ya'ni og'zaki nutq qonuniyatlariga asoslangan. Shuning uchun ham mazkur tasnif bugungi kun talablariga javob bermaydi. Birinchidan, yozma nutq (matn) muallifi o'z o'quvchilari hissiyotlarini kuzata olmaydi, faqat tasavvur qilishi mumkin. Ikkinchidan, publisistik, ilmiy, badiiy matn tushunchalari ham borki, ularda yuqoridagi kompozitsion-sintaktik qismlarning barchasi ham ishtiroy etmaydi yoki ular birlashib, uyg'unlashib ketishi mumkin. Ana shu holatlarni hisobga olib, aytish mumkinki, Kvintilian tomonidan ko'rsatib o'tilgan qismlarni axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi kunda zamonaviy nutq ko'rinishlariga nisbatan tadbiq etish o'zini oqlamaydi.

Ana shu zaruriyat asosida tilshunoslikda nutqning kompozitsion-sintaktik qismlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asr oxiri va XXI boshlariga kelib yanada kuchaydi. Rus tilshunos olimasi Y.A.Referovskaya sintaktik kompozitsiya deyilganda, nutq asosiy qism-elementlarining tartibli joylashuvi tushunilishi lozimligini ta'kidlab, uning kirish, fikrning rivojlanishi va xotima kabi qismlardan iborat bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelsa[8,102], G.Ya.Solganik bunday sintaktik kompozitsiya boshlanma, fikr rivoji va tugallanma kabi asosiy uch qismdan iborat bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadi[9,102]. Nutqning kompozitson-sintaktik qismlari haqidagi fikrlarni boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ham uchratish mumkin[10,45]. Tadqiqotchi N.A.Yushina bunday qismlarni faqat abzatsga nisbatan qo'llaydi[11,16].

O'zbek tilshunosligida M.T.Abdupattoev yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlariga tayangan holda, poetik nutq misolida shunday xulosaga keladi:".. she'riy asarlar – to'rtliklar, ruboylar va boshqa kichik hajmli asarlarning o'zi birgina sintaktik butunlik (she'riy band)dan tashkil topgan holatlarda ham, ularning kompozitsion-sintaktik tuzilishi qismlari (boshlanma, fikr rivoji, tugallanma) ro'y-rost ko'zga tashlanadi. Zero, bir she'riy band bitta supersintaktik butunlik demakdir[12,53]".

## XULOSA

Tahlillar asosida, keyingi yillarda nutqning sintaktik kompozitsiyasi haqida ilmiy mulohaza ketganda, uning usullari va qismlari sifatida boshlanma, fikr rivoji va tugallanmani ko'rsatish birmuncha ommalashdi.

Demak, nutqning sintaktik kompozitsion qismlari sifatida boshlanma, fikr rivoji va tugallanmani qayd etgan holda, mazkur qismlarga quyidagicha lingvistik ta'rif berish mumkin:

1.Boshlanma – shakliy jihatdan nutqning sarlavhasi, mavzusi yoki sarlavhasiz nutq (matn)larda birinchi satrni tashkil etgan gapga teng kelib, nutq mavzusini belgilaydigan usuldir. Semantik markaz vazifasini bajaradi. Nutqning makon va zamon maydonini belgilaydi. Matnda o'zidan keyin kelgan barcha sintaktik qurilmalarni semantik jihatdan ham sintaktik jihatdan ham o'ziga tobelanliradi.

2.Fikr rivoji – boshlanmada belgilangan mavzu yoki fikr dinamikasini rivojlantiradi. Tasvir nutq tipida boshlanma orqali belgilangan ob'ekt tasvirini kengaytiradi, izohlaydi. Bir nechta gaplar yordamida ifodalanib, fikr-g'oyani rivojlantiruvchi, shu bilan birga boshlanmani izohlovchi, uning mazmunini oydinlashtiruvchi qism.

3. Tugallanma – nutqning so'nggi gapi (abzatsi), ba'zan she'riy asarning so'nggi bandi. Katta hajmli liroepik asarlarda xotima va uni ifoda etuvchi lisoniy va nutqiy vositalar tizimi. Fikrni xulosalovchi, yakunlovchi. O'zidan oldingi gaplar, qism-fragmentlar mazmunini konkretlashtiruvchi qism[13,152].

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan sintaktik-kompozitsion qismlarni har qanday nutq ko'rinishiga nisbatan tadbiq etish mumkin, ya'ni har qanday nutq ko'rinishida mazkur qismlar xuddi shunday ketma-ketlikda joylashadi va tartiblanadi. Shu bilan birga, nutqda fikrning izchil rivojlanishi va tinglovchi (o'quvchi)ga axborotni ma'lum bir tartibda yetkazishda muhim rol o'yaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Nikonova M.N. Teoriya teksta: ucheb. posobie / M.N. Nikonova. – Omsk: Izd-vo OmGTU, 2008. – 240 s.
2. Vinogradov V.V. K postroeniyu teorii poeticheskogo yazыka// Russkaya slovesnostь. Antologiya. - M., 1997.
3. Ginzburg L.Ya. O lirike. - M., 1974.
4. Zavyal'sova O.S. Kompozitsionno-sintaksicheskiy analiz kak metod izucheniya xudojestvennogo teksta. – M., 2001.
5. Korjikova N.V. Priyomы kompozitsionno-sintaksicheskogo analiza diskursa. ADD – M.,2005.
6. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. NDA. – T., 1998. – B 23.
7. Abdupattoev M.T. Poetik nutqning kompozitsion-sintaktik qurilishida kommunikativ registrlarning o'mni // "Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzab muammolar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon – 2021. – B. 174-179.
8. Solodova Ye.S. Lingvokognitivnye xarakteristiki kompozitsii teksta angliyskix skazok Dj.K. Rouling. Avtorf. diss. kand. filolog. nauk. Xar'kov. 2008, 24-str.
9. Kuznetsova T.I., Strel'nikova P.I. Oratorskoe iskusstvo v Drevnem Rime. – M., 1976. 52-str.
10. Referovskaya Ye.A.Lingvisticheskie issledovaniya struktury teksta. L., «Nauka», 1983, str.69.
11. Solganik G.Ya. Sintaksicheskaya stilistika. M., 1979. str. 102.
12. Abdullaev N.M. Teoriticheskie problemy sintaksisa azerbayjanskogo yazыka. ADD. Baku-1984, str.45.
13. Odintsova S.S. Osobennosti sintaksicheskogo postroeniya syyaznogo teksta. L., 1984, str.18.
14. Yushina N.A. Abzats yego strukturno-semanticheskie tipы i funktsionirovanie ix v proizvedeniyax V.I.Lenina. M. 1972, str.16.
15. Abdupattoev M.T. O'zbek tilining poetik sintaksisi (monografiya). Farg'ona "Classic" 2021. 53-bet.
16. Mamajonov A., Addupattoyev M. O'zbek matning semantik, sintaktik va stilistik aspekti. ( monografiya), Farg'ona., "Classic". 2021. 152- bet.